

## NAVOIY ASARLARIDA ARABCHA O`ZLASHMALAR

*Mengliboyev Muhammadkalom - Nukus DPI talabasi*

*Karimboyeva Zebo - Nukus DPI talabasi*

*Xalnazarova Leyla - Nukus DPI talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Badoye ul bidoya” devoniga kiruvchi mashhur “Ashraquat min” deb boshlanuvchi g`azalidagi arabcha so`zlar va ularning izohi yoritib berilgan.

**Kalit so`zlar:** Navoiy, arab tili, g`azal, musulmon, shoir

Alisher Navoiy davrida turkiy til bilan birga yana ikki tilda ijod qilish an`ana hisoblangan. Hazrat arab va fors tilidan ham foydalanib, asarlarining jozibali, o`quvchini o`ziga sehrlay oladigan darajada bo`lishiga erishgan. Shu bois Navoiy asarlari nafaqat badiiy, balki mislsiz ma`naviy, lisoniy boylik hamdir. Bu boylik tarkibiy qismida ish qurollariga oid so`zlar ham mavjud. Alisher Navoiyning tili, so`z boyligi to`g`risida maqola yozish oson emas. Navoiyning lisoniy olami shu qadar ulkan va behudud ummonki, mutaxassis har qancha qunt va izchillik bilan harakat qilmasin, uni butunisicha qamrab ololmaydi.

Hazratning asarlarini tushunish uchun arab va fors tillarini mukammal bilish talab etiladi.

“Chun mulkdin ba`zi aqolim va kisjvarda sort salotini mustaqil bo`ldilar,ul munosabat bila forsiygo`y shuaro zuhur qildilar.” Ana shu ikki tarixiy omil natijasida turkiy xalqlar orasidan yetishib chiqqan shoir va olimlarning ko`pi fors tilida yozishga rag`batlanganlar. Alisher Navoiy o`z asarlarini turkiy yoki forsiy tilda yozganidan qati`nazar uning asarlarida arabcha o`zlashmalarni ko`rish mumkin

“Ashraquat min” deb boshlanuvchi g`azalida quyidagi arabcha o`zlashmalarni ko`rishimiz mumkin

Ashraquat min aksi shamsil-ka`si anvorul-hudo,

«Yor aksin mayda ko`r» deb, jomdin chiqti sado.

Ashraquat – arabcha chqish ko`tarilish, taralish porlash

Yor – arabcha do`st, sevgili.

Aks – arabcha biror narsaning silliq satxda ko`ringan tasviri. 2. teskari zid qarama- qarshi

Shams-arabcha quyosh oftob

Ka`s-kosa may ichiladigan qadax

Anvorul-xudo-arabcha to`g`ri yo`l nurlari

G'ayr naqshidin ko'ngul jomida bo'lsa zangi g'am,  
Yo'qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g'amzudo.

G'ayr – arabcha o'zga boshqa begona yot  
Naqsh-arabcha kuy ashula  
Zangi g'am-g'am qo'ng'irogi  
Vaxdat-arabcha yakka-yagona-.birlik tanxolik

Ey, xush ul maykim, anga zarf o'lsa bir sing'an safol,  
Jom o'lur getinyamo, Jamshid, ani ichkan gado.

Zarf-arabcha suyuqlik quyiladigan idish, may quyiladigan jom  
Nisor-arabcha sochqi, hurmatli kishilarning boshidan gul tanga chaqa yoki tillo  
sochish

Fido-arabcha bag'ishlash qurrbon  
Soqiy – 1) yaqin do'st; 2) ma'shuqa; 3) piri komil;  
Masallik – kabi, o'xshagan, bamisoli.monand  
G'amzudo – g'amni, dunyo tashvishini ketkizadigan.

Zarf – idish.

Sing'an safol – safol kosa parchasi, ko'chma ma'noda siniq ko'ngil, xoksorlik.

Getinamo – olamni ko'rsatuvchi.

Jamshid – qadimgi eron podsholaridan.

Jomu may gar buyladur, ul jom uchun qilmoq bo'lur,  
Yuz jahon har dam nisor, ul may uchun ming jon fido.

Nisor – bag'ishlash, tuhfa qilish.

Dayr aro hush ahli rasvo bo'lg'ali, ey mug'bacha,  
Jomi may tutsang meni devonadin qil ibtido.

Dayr – zardushtiyalar ibodatxonasi, butxona, nasroniy rohiblar yig'iladigan joy,  
shuningdek, dunyo ma'nolarida ishlatiladi. Tasavvufda orif insonlar majlisi, piri  
komil huzuri. Chunonchi, dayr piri shu ma'nodadir.

Mug'bacha – zardushtiy otashparastlar ibodatxonasi (dayr)ning xizmatkori.  
Tasavvufiy ma'noda piring so'zi va nasihatlarini, fayzu tarovatini muridlarga  
yetkazuvchi kishi.

Ibtido – boshlanish, avval, boshlanadigan joy.

Toki ul maydin ko'ngul jomida bo'lg'ach jilvagar  
Chehrai maqsudi mahv o'lg'ay ham ul dam moado.

Chehrai maqsud – maqsad yuzi. Alloh nurining porlab namoyon bo'lishi, ilohiy haqiqatning ayonlashuvi.

Mahv bo'lmoq – yo'qolish, ko'rinmay qolish, erib, qorishib ketish.

Moado – Allohdan o'zga narsalar, ya'ni moddiy dunyo.

Vahdate bo'lg'ay muyassar may bila jom ichrakim,  
Jomu may lafzin degan bir ism ila qilg'ay ado.

Muyassar-arabcha osonlik bilan yuzaga chiqqan, hosil bo'lgan

Lafz-arabcha og'zaki so'z, so'ifoda

Sen gumon qilg'andin o'zga jomu may mavjud erur.  
Bilmayin nafy etma bu mayxona ahlin, zohido.

Nafy – tanqid, inkor.

Mayxona – komil inson majlisi, oriflar suhbat qiladigan joy.

Zohid – umrini taqvo va toat bilan o'tkazadigan parhezkor odam

Nafy – arabcha tanqid, inkor.

Nido – arabcha qichqirish chaqirish ovoz, sado.

Azal-arabcha boshlanish ibtido

Tashnalab o'lma, Navoiy, chun azal soqiysidin  
«Ishrabu, yo ayyuhal-atshon» kelur har dam nido.

Alisher Navoiy g'azallarida arabcha so'zlarni keltirishi, arabiy jumladan foydalanib g'azallar bitishi o'z davrining bir jihatdan talabi edi. Negaki XIV asrlar adabiyoti forsiy tilda bitilishi, shoirlar fors tilida ijod qilishlari turkiy tilni kambag'al deya kamsitishlari, bu tilda jozibador g'azallar bitishni majhul ish deya ko'rishlari Navoiy bobomizga O'z tilining mavqeyini ko'tarish, ona tilining fors tilidan qolishmasligi, zarur xollarda fors tilida turkiy unsurlardan foydalanib ijod qilishayotgan ijodkorlarga turkiy tilning qaddini ko'rsatish uchun arab tili bir jihatdan tirgak vazifasini o'tab bergan.

O'rta asrlarda arab bo'lmagan mamlakatlarda davlat tili ko'proq fors tillari edi. Ilm-fan va badiiy asarlar ham ko'proq fors tillarida edi. Binobarin, bu tillar musulmon xalqlar o'rtasida asosiy aloqa vositasi sifatida xalqaro tilga aylangandi. Bu tarixiy jarayon she'riyat olamida qanday kechganini Alisher Navoiy ochiq

aytgan.”...to mulk arab xulofosi va salotinida erdi, falak ul vaqtda nazm dabiriga arab tili birla jilva berdi.Xasson Sobitdek va Laqitdek malikul kalom suhanguzorlar va ma`niy ofarin fasoxat shiorlar paydo bo`ldilar va o`z tillari bilan nazm adosining dodini berdilar”. G`azalning tuzilishiga ko`ra asarlar mavzu va g`oyani bayon qilish, sharhlash va umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi qismlardan iborat.

Hazrat Navoiy ijodida xalqimizning botiniy qiyofasi,qalbi va tafakkuri to`la namoyon bo`ladi.Millat tarixida biron shoir mutafakkir bu qadar tarixiy yukni o`z zimmasiga ololmagan,va ulug` ko`lamli ishlarni bu qadar to`kis ado etolmagan.Navoiy adabiyotimizda ham, ma`naviyatimizda ham katta jarayonlarning boshlovchisi sifatida qad ko`targan.Shuning uchun ham uning ijodida biz uchun muhim bo`lgan barcha narsa bor. Umuman,Navoiy bobomizning har bir ijod namunalari avlodlarga qoldirilgan ma`naviy, madaniy misli yo`q boylikdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy “Boadye ul bidoya” dostoni.
2. Ergash Ochilov.Alisher Navoiy.Hikmatlar.Toshkent.2006
3. “O`zbek tilining izohli lug`ati” “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

[www.uzauz](http://www.uzauz)

[www.ilm.uz](http://www.ilm.uz)